

FRANSUZ TILI DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

Ruzmetova Nozima Xamdam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy Universitet Xorijiy filologiya fakulteti
Fransuz filologiyasi 4- kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **D.I. Djafarova**

O'zMU, Fransuz filologiyasi kafedrasi mudiri, dots.

Annotatsiya: maqolada chet tili darslarida o'yinlardan foydalanib o'quvchilarni darsga jalb qilish va darsga qiziqtirishning turli usullaridan foydalanishning o'zigaxosliklari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Lingivistikada o'yin usullari, jalb qilish, shaxsga qaratilgan faoliyat, muloqot, nutq faoliyati.

Annotation: the article reveals the peculiarities of using different methods of attracting students to the lesson and making them interested in the lesson using games in foreign language classes.

Keywords: game methods in linguistics, engagement, person-oriented activity, communication, speech activity.

Аннотация: в статье раскрываются особенности использования различных методов привлечения учащихся к уроку и заинтересовывания их уроком с помощью игр на занятиях иностранным языком.

Ключевые слова: игровые методы в языкознании, вовлеченность, личностно-ориентированная деятельность, общение, речевая деятельность.

Yurtimizda bugungi kunda chet tillarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Til bilish har bir shaxsning kelajagi uchun ham yaxshidir, chet tillarini bilgan mutaxassis yaxshi (obro'li) ish topish uchun dahvogar bo'la oladi. Chet tilini bilgan xodimhamkasblari orasida yuqori darajada turadi. Bugungi avlodlarimizning ota-onalari shunday fikr yuritmoqdalar. Chet tiliga e'tibor bizning yurtimizda mustaq Billikka erishganimizdan so'ng sezilarli darajada o'zgardi. Bugungi kunga kelib bu ehtibor davlat darajasiga ko'tarildi. Birinchi Prezidentimizning 2012- yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori chet tili o'qituvchilari va ota-onalar tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olindi. Bu qaror chet tili o'qituvchilarining zimmasiga katta mahsuliyat yuklaydi. O'qituvchilar chet tillarini o'quvchi (talaba) larga o'rgatishda samarali natijalarga erishish uchun tinmay izlanishlar olib boradilar. Har bir chet tili o'qituvchisi o'quvchilarni chet tili o'rganishga qiziqtirishni, ularning bu qiziqishlarini, ijodiyva aqliy faoliyatlarini rivojlantirishni xohlaydilar. O'z darslarini diqqatni tortuvchi va qiziqarli tarzda olib borish uchun chet tili o'qituvchilari ta'lim jarayonida o'yin usullaridan foydalanadilar. Lingivistikada o'yin usullari til o'rgatishning kuchli vositasi sifatida qaraladi. O'yin usullari yordamida talaffuz yaxshi o'rganiladi, leksik va grammatik material faollashtiriladi, tinglab tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'yin usullaridan foydalanish xatto

“kuchsiz” o'quvchilarni ham dars jarayoniga jalb qilish imkonini beradi, chunki bu usul o'quvchida faqat bilimni namoyon qilibgina qolmay, yana topqirlik tushunish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi

Darsda har qanday faoliyat turi o'yin elementlari orqali olib borilsa, eng zerikarli dars ham o'quvchini o'ziga jalb qilib oladi. Chet tili o'qitish bo'yicha metodist-olimlarning fikricha “ O'yin – bu quyidagi faoliyatlardan tashkil topadi:

1. Faoliyat turi (til o'rganishda –nutq)
2. Jalb qilish (majbur qilmasdan);
3. Har bir shaxsga qaratilgan faoliyat;
4. Jamoa orqali jamoada ta'lim va tarbiya;
5. Psixologik qobiliyatlarni rivojlantirish;
6. “Zavq bilan o'rganish”.

Chet tili darslarida foydalaniladigan o'yin usullarining 6 ta asosiy maqsadlari quyidagilar:

1. Aniq ko'nikmalarni shakllantirish, misol uchun:-Deviner. OÙ nous allons aujourd'hui ?
 - -Allons –nous au cinéma ?
 - –Non.-Est-ce que nous allons au parc? –non.
2. Aniq nutq malakalarini rivojlantirish, misol uchun; “Appartement” mavzusini o'tib bo'lgandan so'ng quyidagi o'yinni q o'llash mumkin:

-Votre copain a reçu un nouvel appartement. Aidez votre ami à meubler (kvartira rasmi yozuv taxtasiga osib qo'yiladi) [3.18]

3. Muloqot ko'nikmalarini o'rgatish:
 - -Eng mulozamatli suxbatdosh.
 - -Tabriklash yoki mulozamat ko'rsatish.
 - -O'rtog'i yoki boshqa kimsaga o'z noroziligini bildirish.
 - -Diqqatni tortish uchun iboralardan foydalanish.
4. Psixologik xolat yoki qobiliyatni rivojlantirish:
 - “Es –tu attentive ?” o'yini. La mère de Pierre lui a demandé d'acheter du pain, du beurre, une baguette et du lait. Lui, il a pris du pain, du sucre, une baguette et du lait. Qu'est-ce qu'il oublié?
 - “Yumoloqlangan qor”.
 - Je vais voyager. Je fais ma valise: une brosse à dents et une pâte dentifrice.
 - Je vais voyager. Je fais ma valise: une brosse à dents et une pâte dentifrice, un savon etc. Bu o'yinda kim ko'proq so'zlarni eslab qolishi va to'g'ri talaffuz qilishiga e'tibor qaratiladi.
5. O'lkashunoslikka va tilga oid bilimlarni rivojlantirish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun mavzu asosida sayoxat, tashrishi, kinoga borish, vrach qabulida kabi darslar tashkil qilish.
6. Til materialini esda saqlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

- qofiyadosh so'zlar;
- so'zlarni xarakat yoki imo-ishora orqali bayon qilish
- bir xil so'zni har xil insonlarda takrorlanishi (turli kasblar, xarakterlar va hokazolar).

Bu o'yin turlari so'zlar topishdan boshlab gap tuzish, matnni hikoya qilish kabi faoliyat xarakterlariga qarab kengayib borish asosida o'quvchilarda leksik, grammatik, stilistik, orfografik va fonetik bilim darajalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fransuz tili darslarida interfaol va zamonaviy usullardan foydalanish samarasi quyidagilar:

-o'quvchilar yangi bilimlarni tez va mustaqil egallaydi;

- o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashga harakat qiladi va mustaqil ijodiy ishlaydi;
- o'rganilgan mavzu doirasida izlanadi;
- atrofni kuzatishga, ko'rganlarini umumlashtirishga va matnni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishga o'rganadi;
- so'z boyligi oshadi, suhbatdoshi bilan o'zaro muloqotga kirishishi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi;
- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.

Ko'rinadiki, interfaol usullar, elektron darsliklar zamonaviy axborot texnologiyalari majmuasi sifatida respublikamizning fransuz tili ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, quyidagi interfaol usullar ham darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishda samara beradi. "So'zlar zanjiri" usuli. Bu usulda fransuz tili o'qitishning boshlang'ich qismida qo'llash tavsiya etiladi. Masalan: Fransuz tilidan ranglar, raqamlar yoki shunga o'xshash oddiy mavzular o'tilgandan so'ng, shu mavzularga oid ma'lumot dastlab o'qituvchi tomonidan aytiladi va o'quvchilar ham o'qituvchi aytganini, ham o'zi yangi so'z aytib davom ettiradi. Bu usul xotirani mustahkamlaydi va mavzular esda qolishiga yordam beradi. "To'rtinchisi ortiqcha" usuli. Bu usul rasmlarsiz tashkil etiladi. O'quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo'ziqorin. O'quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so'ng undan fikrini asoslab berishi so'ralishi kerak. Bu usul o'quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga nutqning o'sishiga ham yordam beradi. Metod individual tarzda o'tkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko'rinishida o'tkazilsa o'quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda barcha insonlar zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi, mobil aloqa, matnli, ovozli va videoxabarlar, kompyuter o'yinlari, internet orqali xaridlar, rasm va video tasvirga olish hamda ularni dunyoning xoxlagan joyiga bir zumda yuborish. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar maishiy hayotimizni ham yengillashtiradi, mikroto'lqinli pechlar, kir yuvish mashinalari, kabelli telvideniya, raqamli elektr-gaz-suv hisoblagichlar, elektron pul o'tkazmalar va hokazo. Zamonaviy texnologiyalarning ham ko'plab afzaliklari mavjud. Masalan audio, video, va matnlar orqali chet tillarini mustaqil ravishda o'rganishimiz, mavzularni tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Е.И. Пассов. Коммуникативный метод обучения иностранному говорению.
2. Еиздание. Москва. Просвещение, 2001-223с.2. D. Berger, N. Spicacci. Accord-méthode de français. Paris, Dedier. 2009.
3. H.Augé, M.D. Cafiada Pujois. Tout va bien! -méthode français. Paris, CLE International, 2011
4. I.T.Dehqonov.Tarjimashunoslikda ekzotizm tushunchasi va uning tafsifi haqida. (2020) Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 12 (12), 250-253
5. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2021) Fransuz, o'zbek va rus tillarida sodda nutqning qiyosiy taxlili: tarjimada leksik ekvivalent topish muammosi. Fardu ILMIIY XABARLARI. 2 (2), 212-214.
6. Dehqonov Islom Teshaeovich.(2022) fransuz nutqiy etiketida pragmatika va intonatsiya. Gospodarka i innowacje. Volume: 24.975-978.
7. Dehqonov, I.T. (2022). Nutqiy etiket birliklari (fransuz va o'zbek tillari misolida). Ijodkor o'qituvchi, 2(23), 222-226.

8. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
9. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
14. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
15. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
16. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
17. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *О‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).